

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
ZAMONAVIY YONDASHUV**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6066238>

Rohila Bekchonova Maqsudovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi

3-son maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annatatsiya: *Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'lishi haqida.*

Kalit so'zlar: *Vaqt taqsimoti, sifat samaradorligi, pedagogik faoliyat, didaktik metodlar.*

O'zbekiston Respublikasida ta'lrim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lrim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lrim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lrim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagog jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ta'lrim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang'ich sinflarda ta'lrim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lrim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lrim amaliyoti bilan aloqador kontseptsiyasidir. "Boshlang'ich sinflarda talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi umumiyligi holda o'qitish metodi o'zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi". Boshlang'ich sinflarda ta'lrim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metodbelgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o'z o'rniда ishlatsa, shubhasiz, faoldir. Talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv ham darsda o'quvchilar faoliyatining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan, bu

faslda hali pedagogik jarayon uchun notanish bo’lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi. Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujumni” uyushtirish bir muncha sodda bo’lib, undan ta’lim mazmunini o’zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechishni topishda ham juda qo’l keladi. Dastlab guruh yig’iladi va ular oldiga muammo qo’yiladi. Bu muammo yechimi to’g’risida barcha ishtirokchilar o’z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o’zga kishi g’oyalariga hujum qilish yoki baholashga haqqi yo’q.

Boshlang’ich sinflarda “O’qish” darslarida matnlar berilgan bo’lib, shulardan biri “Alisher Navoiy” matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o’xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni “Aqliy hujum” metodi yordamida o’rganish ko’zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo’ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Daminov T, Adambekova T. O’yin mashg`ulotlari. Toshkent: 1993-y